

Gulandom Abdullayeva

Oriental universiteti NOTM o'qituvchisi

Zikirova A.B.

Filologiya fakulteti TF(K) 101-guruh talabasi



Annotatsiya: Mazkur maqolada turk va o'zbek tillarida uchraydigan iboralar, ularning tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda pragmatik jihatlari o'rganiladi. Tadqiqotda frazeologizmlarning paydo bo'lishi, umumiy va farqli tomonlari, ularning tarixiy ildizlari va madaniy kontekstdagi o'rni tahlil qilinadi. Turk va o'zbek tillaridagi iboralar semantik jihatdan guruhanib, ularning sinonimiya, antonimiya va stilistik qo'llanilishi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, ibora, semantika, o'zbek tili, turk tili, lingvistik tahlil, tarjima.

Annotation: This article studies the expressions found in Turkish and Uzbek languages, their structure, semantic features and pragmatic aspects. The study analyzes the emergence of phraseologisms, their common and different aspects, their historical roots and place in the cultural context. Implementations in Turkish and Uzbek languages are grouped semantically, and their synonymy, antonym and stylistic use are determined.

Keywords: phraseology, expression, semantics, Uzbek language, Turkish language, linguistic analysis, translation.

Dipnot: Bu makalede Türkçe ve Özbekçede bulunan deyimler, yapıları, anlamsal özellikleri ve pragmatik yönleri incelenmektedir.

Çalışmada deyimlerin ortaya çıkışları, ortak ve farklı yönleri, tarihsel kökenleri ve kültürel bağlamdaki yerleri ele alınmaktadır. Türkçe ve Özbekçedeki ifadeler anlamsal olarak gruplandırılarak eş anlamlılıkları, zıt anlamlılıkları ve üslup kullanımları belirlenmiştir.

Anahtar kelimeler: deyim, anlatım, anlam bilimi, Özbek dili, Türk dili, dilbilimsel analiz, çeviri.

Kirish

O'zbek va turk tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uzoq tarixiy ildizlarga ega. Ushbu tillarda iboralarning shakllanishi, ularning ma'no doirasi va ishlatilish xususiyatlari umumiy asoslarga ega bo'lsa-da, har bir til o'ziga xos o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Iboralar har qanday tilning madaniy va tarixiy xotirasini aks ettirib, xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari va mentalitetini yoritadi. Ushbu maqolada turk va o'zbek tillarida iboralar tahlil qilinib, ularning o'xhash va farqli jihatlari ko'rib chiqiladi. Iboralar haqida umumiy tushuncha - Tilshunoslikda iboralar (frazeologik birliklar) ma'lum bir ifodaviy yoki obrazli ma'noga ega bo'lgan, mustahkam tuzilishga ega bo'lgan birikmalardir. Ular leksik jihatdan tayyor shaklda bo'lib, o'z ma'nosini tarkibiy qismlarining alohida ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Masalan: O'zbek tilida: "Ko'kdan kelgan baxt" – kutilmagan omad

Turk tilida: "Gökten düşen kismet" – beklenmedik şans. Bu iboralar ma'nodosh bo'lsa-da, ularning leksik tarkibida ba'zi o'zgarishlar mavjud.

Date: 27th March-2025

O‘zbek va turk tillaridagi iboralarning o‘xshashlik va farqlari:

1. Fonetik o‘xshashlik - o‘zbek va turk tillarida ba’zi iboralar fonetik jihatdan o‘xshash bo‘lib, talaffuzdagi farqlar bilan ajralib turadi. Masalan:

O‘zbekcha: “Ko‘z-quloq bo‘lmoq” – diqqat bilan kuzatmoq.

Turkcha: “Göz kulak olmak” – dikkatlice gözlemlemek.

Bu iboralarning tarkibiy qismlari ham, semantik yuki ham bir-biriga juda yaqin.

2. Semantik o‘xshashlik - ba’zi iboralar bir xil ma’noni anglatgan holda, leksik jihatdan farqlanadi:

O‘zbekcha: “Odamning boshi osmonga yetdi” – juda xursand bo‘ldi

Turkcha: “Havalara uçtu” – Çok mutluydu. Bu iboralarning ma’nosini bir xil bo‘lsada, ifodalash shakllari turlicha.

3. Milliy-madaniy xususiyatlar - ba’zi iboralar milliy madaniyatga bog‘liq bo‘lib, o‘zga tilga tarjima qilinishi qiyin bo‘ladi:

O‘zbekcha: “Tuya tagidan igna qidirish” – juda mushkul ish bilan shug‘ullanish

Turkcha: “Samanlıkta iğne aramak” – somon ichidan igna qidirish

Bu iboralar bir xil semantik maydonga ega bo‘lib, leksik tarkibida ba’zi farqlar bor.

Iboralarni tarjima qilish muammolari - Iboralarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklar mavjud.

Tarjima jarayonida quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. To‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima: Agar ibora ikkala tilda ham bir xil tuzilishga ega bo‘lsa, uni so‘zma-so‘z tarjima qilish mumkin.

O‘zbekcha: “Tish-tirnog‘i bilan himoya qilmoq”

Turkcha: “Tırnaklarıyla savunmak”

2. Ma’noga mos tarjima: Ba’zi iboralar boshqa tilda aynan mos kelmasa ham, ularning ma’noji jihatidan ekvivalent varianti tanlanadi.

O‘zbekcha: “Olmani daraxtidan uzoqqa tushmaydi”

Turkcha: “Armut dibine düşer”

3. Tushuntirish usuli: Agar ibora boshqa tilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelmasa, umazmun jihatidan izohlab tarjima qilinadi.

O‘zbekcha: “Otning kallasidek” (juda katta narsa haqida)

Turkcha: “Kocaman” (izohlovchi tarjima)

Turk va o‘zbek tillari qanchalik bir-biriga yaqin, qanchalik bir-biriga o‘xshash bo‘lmashin, ularning juda ko‘p farqli tomonlari, o‘quvchini adashtirishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p jihatlari bor. Ayni shunday murakkab jihatlar bu ikki tilni ham qiyosiy ham alohida tadqiq qilinishi lozimligini ko‘rsatadi.

Tilni biz ummonga o‘xshatamiz. Darhaqiqat, har bir til dengiz misoli jilolanadi. Dengizning har bir tomchisi kabi tilning ham o‘ziga xos xususiyatlari juda ko‘pdir. Turk tili darslarining boshidanoq, uning bamisoliga to‘lqinlanib turgan dengizga o‘xshashligini aytamiz.

Date: 27th March-2025

Til o‘rganishning ilk kunlari dengizning sayoz yeriga o‘xshash oson bo‘ladi, lekin suzishni bilmasa u g’arq qilganidek, tilni ham chuqur o‘rganmasa unda ham “g’arq” bo‘lish turgan gap.

Turk tilidagi juda ko‘p so‘zlar yozilishi va o‘qilishi jihatidan o‘zbek tiliga o‘xshashdir. Bularning bir qancha qismi ma’no jihatidan o‘zbek tili bilan bir xil bo‘lsada, juda ko‘p qismining ma’nosи umuman farqlidir. Bunday so‘zlarni “aldoqchi so‘zlar” deb ham ataladi. Turk tili bo‘yicha mutaxassis, olim, Berdaq Yusuf shunday so‘zlar bo‘yicha alohida lug’at tayyorlab, uni “aldoqchi so‘zlar lug’ati” deb nomlagan. Shunday so‘zlar bilan bir qatorda aytishi bir, ma’nosи farqli bo‘lgan iboralar ham talaygina. Ushbu kichik tadqiqotimiz ham aynan ma’nosи jihatidan birbiriga o‘xshamaydigan iboralar haqidadir. Har bir tilning bebaho duru gavharlari bo‘lmish iboralarning o‘zi ham bir olamdir.

Hozirgi kunda ikki tildagi iboralarni juda ko‘p jihatdan o‘rganishga e’tibor kuchayib bormoqda. Chunki iboralar hoh yozma nutqda hoh og’zaki nutqda bo‘lsin, tilning go‘zalligini ko‘rsatib beruvchi omil hisoblanib, ma’noni yetkazib berishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda ikki tilda ham o‘ziga xos, ajoyib iboralar mavjud bo‘lsada, yuqoridaq aldoqchi so‘zlar kabi, aytishi bir, lekin ma’nosи farqli bo‘lgan iboralar ham ko‘pdir. Ushbu maqolamizda iboralarning ayni shu jihatiga e’tibor qaratmoqchimiz.

“Ma’lumki, frazeologizmlar nutq ta’sirini kuchaytiruvchi va insonlar tomonidan o‘zlashtirilib, ularning ongiga chuqur singib ketgan so‘zlar sifatida xalqning urf-odati, an’analari, madaniyati va tarixini o‘zida yaqqol aks ettirib, adabiy tilning keng ifoda imkoniyatlarini o‘zida namoyon qiluvchi leksik vositalar hisoblangan birliklar sifatida inson hayotining barcha sohalarini qamrab olgan”.

Turk tilida shunday iboralar borki, huddi o‘zbek tilidagi iboraga o‘xshaydi. Iborani tashkil qiluvchi so‘zları ham bir xil. Lekin ularning ma’nosiga va qo‘llanish darajasiga kelsak umuman farqlidir. Shunday iboralardan biri “Soğukkanlı” dir.

Bu iboraning aytishi ham yozilishi ham o‘zbek tilidagi “sovuuqqon” iborasiga o‘xshaydi. Bu ikki ibora bir xil talaffuz qilinib, qulorra ham bir xil eshitiladi. Bu iboralar ikki tilda ham insonning xususiyatini, fe’l-atvorini tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Lekin bu iboralarning tarjimadagi ma’nosи umuman boshqacha. O‘zbek tilidagi “sovuuqqon” iborasi salbiy ma’no kasb etib, insonning har qanday sohaga befarqligi, e’tiborsizligi, odamlarga nisbatan kirishimsiz, muomalasiz kabi ma’nolarni anglatadi. Bunday fe’l - atvorli kishilar jamiyatda xush qarshilanmaydi. Turk tilidagi “soğukkanlı” iborasi ham insonning fe’l-atvorini tasvirlash uchun ifodalansada, bu ibora ijobiy ma’noda qo‘llaniladi.

Turk tilidagi izohli lug’atda bu ibora quyidagicha izohlangan:

“Soğukkanlı – kolayca öfke, telaş, heyecane kapılmayan, serin kanlı”.

Tarjiması: Sovuuqqonli – osonlikcha g’azablanmaydigan, havotirga, hayajonga tez berilmaydigan, sovuq qonli.

Lug’atda izohlanganidek, “soğukkanlı” deya ta’riflangan inson har qanday noxush vaziyatda, asablar tarang bo‘lib turgan vaqtida ham tezgina qizishib ketmaydigan, jaxl

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th March-2025

otiga minib g'azablanmaydigan, aksincha, shunday asabiy bir vaziyatda ham o'zini vazmin tutib, o'ylab ish qiladigan insonlar uchun qo'llaniladi.

Turk jamiyatida "soğukkanlı" deya ta'riflangan insonlar xush qarshilanadi.

"Helâl olsun, ne soğuk kanlı davrandı".

Tarjimasi: "E qoyil e, qanday bosiqlik bilan munosabatda bo'ldi"

"O çok soğukkanlı bir insandı, hiç bir zaman paniğe kapılmazdı".

Tarjimasi: U juda og'ir-bosiq inson edi, hech bir vaqt vahimaga tushmasdi"

Yuqoridagi misollardan ko'rinish turganidek, birgina "soğukkanlı", "sovusqon"

iborasining o'ziyoq bir xil aytilsada uning tom ma'nosini o'rganib, to'g'ri tarjima qilinmasa noto'ri tushunchalarga olib keladi.

Turk va o'zbek tillarida aytilishi bir ammo ma'nosni farqli bo'lgan iboralardan

yana biri "gönül koymak" dir. "Gönül koymak" iborasini o'zbek tiliga so'zma so'z o'girilsa "ko'ngil qoymoq" iborasiga aynan, birga-bir o'xshaydi.

"Ko'ngil qo'ymoq" iborasi o'zbek tilida qiz va yigit o'rtasida yoki ayol va erkak o'rtasidagi mehr qo'ymoq, bir - birini yoqtirmoq, sevib qolmoq yoki boshqa bir jonsiz narsalarga nisbatan ham yaxshi ko'rmoq ma'nolarini ifodalaydi. Ushbu iboraning turk tilidagi ma'nosni esa umuman boshqachadir. Turk tilidagi iboralarning izohli lug'atida shunday ta'rif berilgan:

"Gönül koymak"- 1) Birisine alınmak, kırılmak, gücencmek. 2) Biriyle tüm iletişim kesmek. 3) (Halk arasında) Birisine aşık olmak, gönül vermek deyiminin yerine kullanılır.

Tarjimasi: "Gönül koymak" –

1) Biror bir kishidan hafa bo'lmoq, dili og'rimoq, ko'ngli qolmoq.

2) Biror bir kishi bilan o'rtadagi aloqani uzish.

3) (xalq og'zaki ijodida, so'zlashuvda) Biror kishiga oshiq bo'lmoq, ko'ngil bermoq iborasining o'rniga ishlataladi.

Lug'atdagi izohlarga ko'ra turk tilidagi "Gönül koymak" iborasi, o'zbek tilidan farqli o'laroq, biror kishidan xafa bo'lish, dili og'rish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

"Kendisinden defalarca özür dilememe rağmen bana hala gönül koyuyor".

Tarjimasi: "Undan necha marotaba uzr so'rashimga qaramay, menden haligacha hafa".

"Üç günlük dünyada kimse eski dostlarına gönül koymamalı".

Tarjimasi: "Uch kunlik dunyoda hech kim qadrdon do'stlaridan hafa bo'lmasligi kerak".

Yuqoridagi misollarda ko'rib turganimizdek "gönül koymak" iborasining ham tom ma'nosini o'rganib qo'llanilmasa, noto'g'ri tarjimalarga yo'l qo'yiladi va yanglish fikrmulohazalarga olib keladi.

"Gönül koymak" iborasining lug'atda keltirilgan ikkinchi ma'nosni, yani "Biror kishi bilan o'rtadagi aloqani uzish" ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, ibora

ishlatilingan konteksdagi oldingi va keyingi gaplarning ma'nosiga qarab tarjima qilinishi to'g'ri bo'ladi.

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th March-2025



Ushbu iboraning uchinchi ma’nosida: “xalq og’zaki ijodida, so‘zlashuvda, biror kishiga oshiq bo‘lmoq, “ko‘ngil bermoq” iborasining o‘rnida qo‘llaniladi” deya ochiqlangan.

“Seni sevdim, sana gönüл koydum”.

Tarjimasi:

Seni sevdim, senga ko‘ngil qo‘ydim.

Yuqoridagi misollarda ko‘rganimizdek iboraning uchinchi ma’nosida o‘zbek tilidagi “ko‘ngil qo‘ymoq” iborasiga mos tushyapti. Bu ham bo‘lsa xalq og’zaki ijodi namunalarida, badiiy asarlarda ko‘proq uchraydi.

Bu esa o‘zbek va turk tilining ildizi, negizi birligidan dalolat beradi. Zamon o‘tgan sari tilda ham bir qancha o‘zgarishlar ro‘y berib, so‘zlarning asl ma’nolardan uzoqlashish, nafaqat uzoqlashish balki umuman teskari ma’nolarga kelib qolishi ham kuzatiladi.

Shunday iboralardan yana biri turk tilidagi “gögüs germek” iborasidir. Ushbu iborani o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z o‘girilsa “ko‘krak kermoq” deya tarjima qilinadi. Ne ajabki, o‘zbek tilida ham “ko‘krak kermoq” iborasi mavjud. Endi esa turk tilidagi ushbu iboraning izohli lug’atdagi ma’nolarini ko‘rib o‘tamiz.

“Gögüs germek” – bir zorluğa dayanmak, karşı koymak, üstesinden gelmek, zorlukları aşmak.

Tarjimasi:

“Gögüs germek” – biror qiyinchilikka chidamoq, qiyinchilikka qarshi qalqon bo‘lib turib bermoq, qiyinchiliklarni yengib o‘tish. Iboraning lug’atdagi ma’nosidan ko‘rinib turibdiki, turk tilidagi “gögüs germek” iborasi hayotda uchragan qiyinchilikka bardosh berish va qiyinchiliklarni yengib o‘tish ma’nolarida qo‘llanilar ekan.

“Bugüne kadar bütün zorluklara bir aile olarak birlikte göğüs germeyi başardık.”

Tarjimasi:

“Shu kungacha butun qiyinchiliklarga bir oila bo‘lib bardosh berishni uddaladik”.

“Yıllarca bu hastalığa göğüs germişti.”

Tarjimasi:

“Yıllar davomida bu kasallikka chidab kelgandi.”

Yuqoridagi misollardan turk tilidagi “gögüs germek” iborasining tom ma’nosini kunday ravshan bo‘ldi. Lekin o‘zbek tilida ayni iboraning o‘zginasini bo‘lgan “ko‘krak kermoq” ning ma’nosini tubdan farq qilmoqda. O‘zbek tilidagi “ko‘krak kermoq” iborasi faxrlanmoq, mag’rurlanmoq kabi ma’nolarni o‘z ichiga mujassamlashtirgan. Jasorat ko‘rsatib yoki biror bir ishni qoyilmaqom uddalab, faxr tuyg’usi bilan ko‘krak kerish mumkin. Ota-onalar farzandlarini muvaffaqiyatini ko‘rib faxrlanganda “ko‘krak kerib” yuribdilar, deya qo‘llash mumkin.

Yuqoridagi fikrlarni ta’kidlab shuni aytish mumkinki, bu ikki tildagi o‘xhash iboralarning tom ma’nosini, o‘ziga xos xususiyatini yaxshi anglab yetilmasa, yoki so‘zma-so‘z o‘girib qo‘yilsa matnda tushunarsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Navbatdagi tahlil qilmoqchi bo‘lgan iboramiz, turk tilidagi “ilk göz ağrısı” iborasidir. Ushbu iboraning

Date: 27th March-2025

ham o‘zbek tilida o‘xshash shakli bor, ya’ni “ko‘z og’rig’i”. O‘zbek tilidagi “ko‘z og’rigi” iborasi ko‘proq so‘zlashuvda, badiiy matnlarda ko‘p uchraydi. O‘zbek tilida ko‘z og’rig’i iborasi yengil dardlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ya’ni, og’ir bo‘lmagan, yengil og’riq bilan o‘tib ketadigan dardlar uchun “ko‘z og’rig’iday gap” deb qo‘yiladi. Lekin turk tilidagi “göz ağrısı” iborasi o‘zbek tilidagidan tubdan farq qilib, og’riq, dard ma’nolaridan ancha uzoqdir. Turk tilidagi “ilk göz ağrısı” iborasining izohli lug’atdagi ma’nolarini ko‘rib chiqamiz.

“Ilk göz ağrısı”- 1) İlk doğan çocuk. 2) Bir kimsenin aşık olduğu, sevdiği ilk insanı, ilk aşkı.

Tarjimasi:

“Ilk göz ağrısı” – 1) Birinchi tug’ilgan farzand. 2) Bir insonning sevgan ilk insoni, birinchi muhabbatı.

Ushbu lug’atdagi izohlarga ko‘ra turk tilidagi “Ilk göz ağrısı” iborasi otaonaning birinchi tug’ilgan farzandi uchun yoki ilk sevgan insoni, birinchi muhabbatini atash uchun qo‘llaniladigan ibora ekan.

“Sen ilk aşkim, ilk gözağrısın, dünyalara değişimseni”.

“Sen ilk sevgim, birinchi muhabbatımsan, hech narsaga almashmayman seni.”

“İlk gözağrim, diyerek annem abimi çok şımarttı”.

“To‘ng’ich farzandım, deb onam akamni juda taltaytirib yubordı”.

“İlk gözağrim, gençlik aşkımı aniden görünce ne yapacağımı bilemedim”.

“Birinchi muhabbatım, yoshlikdagi sevgilimni to‘satdan ko‘rgach nima qilishimni bilmay qoldım”. “Ilk göz ağrısı” iborasining paydo bo‘lish tarixi ham bor ekan.

Qadimda askarlik xizmati va urushlar uzoq vaqt davom etgani uchun Onado‘lining har bir joyidan eng kamida uch, besh yilga xizmatga, urushga ketgan yigitlar, erkaklar bo‘lgan ekan. Bu askarlarning uyida qolgan onalari, singillari, turmush o‘rtoqlari, qayliqlari va sevgililari qon yig’lab qolishar ekan. Bu bechora ayollar, vatanini, millatini, dinini himoya qilish uchun kurashayotgan mard erlari bilan g’ururlanar ekanlar, lekin ayni damda yig’lamay, ko‘z yoshi to‘kmay ham kunlari o‘tmasmish. Ba’zan oshkora, bazan pinhona yig’lagan yosh qiz va kelinchaklarning ko‘z yoshlari qurib, ko‘zlar og’riy boshlagan ekan. Har qancha yig’lasalarda yorlaridan darak yoq emish. Shunda chorasiz bir-birlari bilan gaplashayotganlarida, o’sha zamonning hayo va ibosi natijasi o‘laroq “sening sevgiling, ering” deyishga or qilib, “Mening ko‘z og’rigimdan maktub kelmadi, senikidan habar bormi”- deya so‘rashar ekan. Shu shu bo‘lib ilk sevgan yori, birinchi muhabbatı uchun “Ilk göz ağrısı” iborasini qo‘llash odatga aylanib qolgan ekan. Iboralar borasida yana shuni aytish mumkinki, turk tilidagi har bir iboraning o‘zbek tilidagi aynan o‘xshash shakli bo‘lmagligi tabiiy. Lekin ba’zi vaqtlarda turk tilidagi iboralarni o‘zbek tilidagi muqobilini to‘g’ri topa olmay yoki ma’nosini yaxshi tushunib yetmay, ularni so‘zma-so‘z o‘girib qo‘yish vaziyatlari ham ko‘p uchraydi. Bu xatolarga ko‘pincha film va seriallar tarjimasida duch kelamiz.

Date: 27th March-2025

Misol uchun, turk tilidagi “onun ipiyle kuyuya inilmez” iborasi mayjud bo‘lib, uni o‘zbek tiliga so‘zmaso‘z o‘girsak, “uning ipi bilan quduqqa tushib bo‘lmaydi” degan gapga to‘g’ri keladi.

Ko‘p seriallarda shu ibora aynan shunday, so‘zma-so‘z tarjima qilingan holatlarga duch kelganmiz. Vaholangki, u o‘rinda “ip” ha “quduq” ham yo‘q. Turk tilidagi ushbu iboraning asl ma’nosini esa “unga ishonch yo‘q” degan ma’noni anglatadi. Tarjimadagi shu kabi xatolar istar filmlar tarjimasida, istar badiiy adabiyot tarjimalarida bo‘lsin ma’noning o‘zgarib ketishiga, noto‘g’ri fikrga olib keladi.

Shuning uchun iboralarning asl ma’nosini va uning qo‘llanish darajasini yaxshi anglab yetib, keyingina ulardan foydalansak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Xulosa

Turk va o‘zbek tillarida iboralar xalqning tarixi, madaniyati va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklardir. Ularning semantik va leksik o‘xshashliklari ushbu tillarning o‘zaro bog‘liqligini isbotlasa, farqli jihatlari milliy xususiyatlar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Iboralarni o‘rganish va tarjima qilish bo‘yicha izlanishlar ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Turk va o‘zbek tillarida iboralar tili boyituvchi muhim vositalardan biri bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili ikki til orasidagi o‘xshashlik va farqlarni ochib beradi. Ularning semantik va strukturaviy jihatdan farqlari madaniy ta’sir va tarixiy omillar bilan bog‘liq. O‘zbek va turk tillaridagi iboralar xalqning dunyoqarashi, hayot falsafasi va tarixiy tajribasini aks ettirgani sababli ularni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- Boynazarova, M. (2020). O‘zbek tilining frazeologik xususiyatlari. Toshkent: Fan nashriyoti.
- Korkmaz, Z. (2011). Türk Dili ve İfadeleri. İstanbul: Türk Dil Kurumu Yayınları.
- Nazarov, U. (2019). O‘zbek tilida iboralar va ularning qiyosiy tahlili. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
- Ergin, M. (2018). Türk Dil Bilgisi. Ankara: TDK Yayınları.
- Rahmatullayev, Sh. (2005). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- Aksoy O. Atasözleri va Deyimler sözlüğü. İstanbul, İnkilap Yayınevi.- 1994.
- Berdak, Y. Turkcha – o‘zbekcha «aldoqchi» so‘zlar lug‘ati. Türkçe-Özbekçe Sesteş Kelimeler Sözlüğü. Toshkent: “Yangi asr avlodı” nashriyoti. 2009.
- Hamidov X. X. Turk frazeologiya masalalari. -Toshkent: TDSHI. 2019 y.
- O‘zbekcha-turkcha, turkcha-o‘zbekcha izohli lug‘at. - Toshkent: 1997.
- Büyük Türkçe-Rusça Sözlük. - Moskva: “Russkiy yazik”, 1977
- Xotamovna, M. F. (2024). MILLIY-MADANIY BIRLIKLER TARJIMALARINING BADIY MATNLARDA BERILISHI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS, 3(34), 179-181.

Date: 27th March-2025

12. Xotamovna, M. F. (2024). MADANIY MARKERLANGAN LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK LEKSIKASI VA ULARNING TARJIMA TRANSFORMATSIYASI MASALALARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(30), 496-499.

